

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
FARMOYISHI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KEÑESINIŇ
BIYLIGI**

2023 - yil 6 - iyul

135-13-0-F/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2023-yil 3-maydagi 03-22/17322-son, 13-maydagi 03/18921-son va 03/18923-son, 23-maydagi 03/20-401-son xatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligining 2023-yil 26-iyundagi CM/12-02/2366-son xulosasiga muvofiq, joriy yilning may-iyun oylarida Buyuk Britaniyaning O'zbekistondagi elchisi T.Torlou, Germaniyaning O'zbekistondagi elchisi T.Klinner, Frantsiyaning O'zbekistondagi elchisi O.Bushez va AQShning O'zbekistondagi elchisi D.Xenikning boshchiligidagi delegatsiyalarning Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrifi bilan bog'liq sarflangan xarajatlarni qoplash maqsadida:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi (M.Sodikov) delegatsiya a'zolarining tushlik va kechki ovqati hamda esdalik sovg'alari uchun sarflangan jami **13 059 050** (*o'n uch million ellik to'qqiz ming ellik*) so'm mablag'ini Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining zaxira jamg'armasi hisobidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda ajratish choralarini ko'rsin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (D.Joldasov) ajratilgan mablag'larni qonunchilikda o'rnatilgan asoslarda va tartibda, maqsadli yo'naltirilishini ta'minlasin.

3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi (B.Utambetov)dan ajratilgan mablag'larning qonunchilikda nazarda tutilgan asoslarda va tartibda, maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o'rnatish so'ralsin.

4. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari A.Oteuliyev zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov